Namangandagi arxeologik yodgorliklarda arxeoseysmologik tadqiqotlar o’tkazildi

O’zR FA Seysmologiya instituti xodimlari tomonidan Rossiya Fanlar akademiyasi O.Yu.Shmidt nomidagi Yer fizikasi instituti (Paleoseysmologiya laboratoriyasi mudiri, professor A.M.Korjenkov), O’zR FA Milliy arxeologiya markazi (professor A.A.Anarbayev)lar hamkorligida Namangan viloyatining Pop va To’rako’rg’on tumanlarida arxeoseysmologik tadqiqotlar o’tkazildi.

Arxeoseysmologik tadqiqotlar Pop tumanining 6-ta obyektida: Baland-Tepa va Qirqxujra va Yangi Axsikent uchastkasidagi 4-ta obyektlar (Xamom, Minora, Muhammad payg'ambarning jiyani ko'milgan mozor, Hazrati Abdullo qabristoni) arxeologik yodgorliklar hududlarida o'tkazildi.

2019-2022-yillarda arxeologlar professor A.A.Anarbayev rahbarligida Baland-Tepa va Qirqhujra arxeologik yodgorliklarida tozalash ishlari va yangi qazilmalar o'tkazish tadbirlari davomida kuchli paleo-zilzilalar va eramizda bo'lib o'tgan zilzilalar ta'sirida paydo bo'lgan turli xil qoldiq deformatsiyalar topildi.

To'raqo'rg'on tumanida yangi qazilmalar va tozalash ishlari Axsikent shahrining Shahriston qal'asida arxeoseysmologik kuzatuvlar davom ettirildi. Qazilmalar va tozalash ishlari qadimgi Axsikent hududida davom ettirilmoqda. 1620-yil magnitudasi M=6.0, seysmik intensivligi I=8-9 ball bo'lgan Axsikentdagi kuchli zilzila o'chog'i yer yuziga chiqqanligi seysmik voqeani qanday kuchli va dahshatli bo'lganligini ko'rsatgani aniqlandi.

Yig'ilgan arxeoseysmologik ma'lumotlar asosida bir necha ilmiy maqolalar nufuzli chet el nashrlarida chop etish mo'ljallanmoqda.